



XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA JAHON TENDENSIYALARINING O'RNI

prof. Ziyayeva Muhtasar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-6957-3737

mukhtasar_yuldasheva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha jahon tendensiyalari va ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va statistik metodlar asosida xizmatlar sektorining global dinamikasi o'rganilgan. Jahon Banki, UNCTAD, WTO va OECD ma'lumotlariga asoslanib, xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilishi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha qiyosiy tahlil, shuningdek, raqamli xizmatlar rivojlanishi va innovatsion texnologiyalar ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekiston uchun xizmatlar sohasini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sektori, raqamli transformatsiya, jahon tendensiyalari, iqtisodiy o'sish, innovatsion texnologiyalar, eksport, raqobatbardoshlik, fintech, elektron tijorat.

РОЛЬ МИРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В РАЗВИТИИ СФЕРЫ УСЛУГ

проф. Зияева Мухтасар

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются мировые тенденции развития сферы услуг и их роль в современной экономике. В исследовании на основе сравнительного анализа, системного подхода и статистических методов изучена глобальная динамика сектора услуг. Основываясь на данных Всемирного банка, ЮНКТАД, ВТО и ОЭСР, рассматривается структура сферы услуг, сравнительный анализ по развитым и развивающимся странам, а также влияние развития цифровых услуг и инновационных технологий. В статье разработаны рекомендации по развитию сферы услуг для Узбекистана, повышению экспортного потенциала и обеспечению конкурентоспособности.

Ключевые слова: сектор услуг, цифровая трансформация, мировые тенденции, экономический рост, инновационные технологии, экспорт, конкурентоспособность, финтех, электронная коммерция.

THE ROLE OF GLOBAL TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR

prof. **Ziyayeva Muhtasar**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes global trends in the development of the service sector and their role in the modern economy. The study examined the global dynamics of the service sector based on comparative analysis, a systematic approach, and statistical methods. Based on data from the World Bank, UNCTAD, WTO, and OECD, the structure of the service sector, a comparative analysis of developed and developing countries, as well as the development of digital services and the impact of innovative technologies are considered. The article develops recommendations for Uzbekistan on the development of the service sector, increasing export potential, and ensuring competitiveness.*

Keywords: *service sector, digital transformation, global trends, economic growth, innovative technologies, export, competitiveness, fintech, e-commerce.*

Kirish.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan segmentiga aylanib bormoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sektori global yalpi ichki mahsulotning 65-70 foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib bormoqda. XXI asrda iqtisodiyotning transformatsiyasi, raqamlashtirish jarayonlari va innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasiga yangicha imkoniyatlar yaratmoqda.

Jahon amaliyotida xizmatlar sektori ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligidan keyin uchinchi sektor sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanib, ish o'rinlarining ko'pchiligini ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sektorining ulushi 70-80 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich 50-60 foiz atrofida bo'lib, o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat xizmat ko'rsatish sohasini chuqur o'rganish va uning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Global iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi eng dinamik rivojlanayotgan va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) asosiy qismini shakllantiruvchi tarmoq sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli texnologiyalar, innovatsion yechimlar va transmilliy iqtisodiy integratsiya jarayonlari xizmatlar sektorining mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Xizmatlar endilikda faqat an'anaviy savdo, transport yoki turizm bilan cheklanmay, balki IT, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, konsalting, elektron tijorat, logistika va hatto sun'iy intellekt asosidagi xizmat turlarini ham o'z ichiga olmoqda.

Jahon amaliyotida xizmatlar sohasining ulushi AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Buyuk Britaniyada xizmat sektori iqtisodiy o'sishning asosiy "dvigateli" hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, xizmatlar eksportining yangi modelini raqamli xizmatlar eksportini shakllantirdi. Masalan, 2024-yilda global raqamli xizmatlar eksporti hajmi 4,5 trillion AQSh dollaridan oshgani qayd etilgan. Ushbu tendensiya mehnat resurslarining malakasini oshirish, innovatsion g'oyalarni iqtisodiy amaliyotga tatbiq etish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, bulutli texnologiyalar va Internet of Things xizmatlar sohasini tubdan o'zgartirib yubordi. Onlayn-tijorat, elektron bank xizmatlari, telemeditsina, masofaviy ta'lim va boshqa raqamli xizmatlar pandemiyadan keyin yanada tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosidan tezroq o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston uchun xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Mamlakatimizda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish vazifalarini hal etishda xizmatlar sektori muhim rol o'ynaydi. Turizmni rivojlantirish, transport-logistika xizmatlarini takomillashtirish, moliya-bank tizimini modernizatsiyalash va raqamli xizmatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan jahon tendensiyalarini o'rganish, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni mahalliy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini baholash dolzarb vazifadir.

Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi xizmatlar sohasida tub o'zgarishlarni tezlashtirdi. Kontaktsiz xizmatlar, masofaviy ish uslubi, virtual hamkorlik platformalari va raqamli transformatsiya jarayonlari yangi normaga aylandi. Bu sharoitda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda milliy iqtisodiyotga moslashtirilgan yondashuvlarni qo'llash zaruriyati paydo bo'ldi. Xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish, innovatsion faollik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir.

Adabiyotlar sharhi

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning markaziy bo'g'ini sifatida shakllanib bormoqda. Jahon miqyosidagi ko'plab tadqiqotlar ushbu sektorning iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va bandlik darajasiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan.

Birinchii yo'nalish xizmatlar iqtisodiyotining o'sish dinamikasini o'rganuvchi tadqiqotlar. Daniels va Bryson (2022) o'z ishida rivojlangan mamlakatlarda xizmat sektori YalMning 75 foizidan ortig'ini tashkil etishini ta'kidlab, bu jarayonni "servitsizatsiya" deb ataydi, ya'ni ishlab chiqarishning xizmatlar bilan integratsiyasini tahlil qilishga va amaliyotgajoriy etishgan.

Hofmeister va boshq (2024) xizmatlar samaradorligi bo'yicha so'nggi ikki o'n yillikdagi 190 ta ilmiy nashrni tizimli tahlil qilib, makro-, mezo- va mikroiqtisodiy o'lchovlarga bo'lgan tadqiqotlarni klasterlashdi, raqamli xizmatlar yaratish va o'lchashda yangi qiyinchiliklar paydo bo'lishini ta'kidladilar.

Baldwin (2021) raqamli xizmatlarning mehnat bozori strukturasi va bandlik geografiyasiga ta'sirini tahlil qilib, "telemigration" tushunchasini ilgari suradi, ya'ni xizmatlar eksporti endilikda insonning joylashuviga bog'liq emasligini ko'rsatib beradi.

Kalabkina (2024) maqolasida jahon xizmatlar bozorining tuzilishi, soha ichidagi tarmoqlar va so'nggi tendensiyalar tahlil qilingan. Muallif xususiy sektorda va davlatlararo xizmat almashinuvida qanday yo'nalishlar sezilayotgani, raqamlashtirish, "servitization" ya'ni mahsulot va xizmatlar integratsiyasi trendi qayd etilgan.

Zalevskaya (2024) maqolasida Rossiya va xorijiy tajribalarda xizmatlar sohasi holati va trendlar solishtirilgan. Masalan, maqolada sohaning tarkibi (tijorat xizmatlari, IKT xizmati, sog'liqni saqlash va boshqalar), raqamli xizmatlarning o'sishi, xizmatlar sohasining iqtisodiy samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Lukiyanchuk (2018) Rossiya xizmatlar sohasining 2010–2018 yillardagi dinamikasi, sektor tarkibida o'zgarishlar, yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarga o'tish jarayonlari tahlil qilingan. Mualliflar "to'rtinchi sektor" (ICT, ta'lim, ilmiy xizmatlar va boshqalar)ga e'tibor berish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Qurbonov (2023) Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari nomli tadqiqot ishida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini o'rgandi, raqamli infratuzilma, elektron to'lovlar va IT-xizmatlar sohasida mavjud qiyinchiliklar va yechimlarni taklif qildi.

Rustamov (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda O'zbekiston xizmatlar sektorida raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi kichik biznes va startaplar faoliyatini jadallashtirgani ilmiy asosda yoritgan.

Mahmudova (2021) "O'zbekistonda xizmatlar eksportini rivojlantirish imkoniyatlari" nomli maqolada O'zbekistonda xizmatlar eksportini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini o'rgandi, xizmatlar savdosini liberallashtirish va milliy xizmat ko'rsatuvchilarning raqobatbardoshligini oshirish choralarini taklif qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik ma'lumotlar tahlili va kontent-analiz metodlaridan foydalanildi. Jahon banki, BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va OECD kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari asosida xizmatlar sektorining rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali nazariy-metodologik asoslar ishlab chiqildi. Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar transformatsiyasi bo'yicha empirik ma'lumotlar yig'ib, ularning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Davlatlararo tajriba almashish doirasida eng yaxshi amaliyotlar aniqlandi va O'zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyatlari baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda xizmatlar sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotining 43,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 45,19 foizga yetgan. Eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning birinchi choragida xizmatlar sektorining YaIMdagi ulushi 56,1 foizga ko'tarilgan¹. Bu raqamlar O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar tarmog'ining markaziy o'rinni egallay boshlaganini ko'rsatadi. Uzoq yillar davomida iqtisodiy o'sish asosan sanoat va qishloq xo'jaligi hisobiga ta'minlab kelingan bo'lsa, hozirda xizmatlar sohasi yangi "drayver" sifatida shakllanmoqda.

Xizmatlar sektorining yillik o'sish sur'ati ham buni tasdiqlaydi: 2024-yilda u 6,7 foizni tashkil etgan bo'lib, YaIM o'sishiga taxminan 3,1 foiz punkt hissasini qo'shgan. Bu o'sish, ayniqsa, savdo, turizm, transport, aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida kuzatilgan. Masalan, 2024-yilda savdo, turizm va umumiy ovqatlanish xizmatlari 10,2 foizga, transport, aloqa va IKT tarmoqlari esa 12,3 foizga o'sgan. Bunday dinamik natijalar xizmat ko'rsatish sohasida diversifikatsiya jarayonlari jadallashayotganini bildiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va logistika tizimlarini modernizatsiya qilish xizmat turlarining samaradorligi va eksport salohiyatini oshirmoqda.

Xalqaro tajriba ham bu yo'nalishning istiqbolli ekanini tasdiqlaydi. Masalan, Jahon Bankining (2023) "The Promise of Services-Led Growth" hisobotida ta'kidlanishicha, xizmatlar sektori iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ishlab chiqarish sanoati bilan teng darajada strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning so'nggi yillardagi iqtisodiy siyosati aynan shu konsepsiyaga yaqinlashmoqda ya'ni yuqori qo'shilgan qiymatli xizmat turlarini rivojlantirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va bandlik darajasini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda xizmatlar sektorining rivojlanishi endilikda faqat ichki ehtiyojlarni emas, balki xalqaro raqobatbardoshlikni ham ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. U iqtisodiyotning strukturaviy diversifikatsiyasini kuchaytirib, zamonaviy bandlik shakllarini shakllantirish, ayollar va yoshlar bandligini oshirish, hamda raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyani chuqurlashtirish imkonini bermoqda. Shu bois, O'zbekiston tajribasi xalqaro miqyosda xizmatlar asosida o'sish modeli tomon boshlangan yangi bosqich sifatida e'tirof etilmoqda.

¹ https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Share_of_services/

1-jadval

Jahon xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilishi va o'sish dinamikasi (2018-2023)

Xizmat turlari	2018-yil (mlrd \$)	2020-yil (mlrd \$)	2023-yil (mlrd \$)	O'sish sur'ati (%)	YIMdagi ulushi (2023, %)
Savdo va chakana sotish	8,450	7,920	9,850	16,6	14,2
Transport va logistika	4,230	3,560	5,120	21,0	7,4
Moliya va sug'urta	6,780	6,450	8,340	23,0	12,0
Turizm va mehmonxona	3,890	1,850	4,560	17,2	6,6
Professional xizmatlar	5,120	5,340	6,980	36,3	10,1
IT va telekommunikatsiya	3,670	4,890	7,230	97,0	10,4
Ta'lim va salomatlik	6,340	6,780	8,120	28,1	11,7
Ko'ngilochar va madaniyat	1,850	980	2,340	26,5	3,4
Davlat xizmatlari	4,120	4,450	5,240	27,2	7,6
Boshqa xizmatlar	3,780	3,920	4,850	28,3	7,0
Jami xizmatlar sektori	48,230	46,140	62,630	29,9	90,4

Manba: World Bank (2023). *The Promise of Services-Led Growth: Uzbekistan Country Report* ma'lumotlari asosida ashkallantirildi.

Birinchi jadval jahon xizmatlar sohasining tarkibiy tuzilishini va uning o'sish dinamikasini aks ettiradi. 2018-2023-yillar oralig'ida xizmatlar sektori 48,2 trillion AQSh dollaridan 62,6 trillion AQSh dollarigacha o'sgan bo'lib, bu 29,9 foizlik o'sishni tashkil etadi. Eng yuqori o'sish sur'atlari IT va telekommunikatsiya sohasida kuzatilmoqda 97 foiz, bu raqamli transformatsiya va pandemiya davrida masofaviy xizmatlar talabining keskin oshishi bilan izohlanadi.

Moliya va sug'urta xizmatlari 23 foizlik o'sish bilan ikkinchi o'rinda turadi, bu global moliya tizimining digitallashuvi, fintech rivojlanishi va yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ta'lim va salomatlik sohalari 28,1 foiz o'sgan, bu pandemiya davrida tibbiy xizmatlar va onlayn ta'lim platformalarining keng qo'llanilishi natijasidir. Transport va logistika sohasidagi 21 foizlik o'sish elektron tijoratning jadal rivojlanishi va yetkazib berish xizmatlariga talabning oshishi bilan tushuntiriladi.

2-jadval

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha xizmatlar sektorining qiyosiy tahlili (2023)

Ko'rsatkichlar	AQSh	Germaniya	Yaponiya	Xitoy	Hindiston	Braziliya	Rossiya	O'zbekiston
YIMda xizmatlar ulushi (%)	77,6	69,3	69,9	54,3	54,0	63,5	56,3	49,7
Bandlikda xizmatlar ulushi (%)	79,5	71,2	70,8	48,1	32,6	71,3	65,4	55,2
Xizmatlar eksporti (mlrd \$)	876	354	196	383	254	38	67	3,8
Raqamli xizmatlar ulushi (%)	42,3	36,7	38,4	39,6	28,4	22,1	24,7	18,3
1 kishiga xizmatlar (\$)	53,420	35,680	32,450	8,340	3,240	6,120	7,890	1,950
Yillik o'sish sur'ati (%)	5,8	4,2	3,6	9,8	11,2	6,3	5,1	7,6
Investitsiyalar (YIMdan %)	3,8	3,2	2,9	4,6	3,7	2,4	2,1	2,8
Xizmat sifati indeksi	8,9	8,7	9,1	7,4	6,8	6,2	6,5	6,3

Manba: World Bank (2024). *World Development Indicators*. Washington, D.C.: World Bank Group. Available at: <https://data.worldbank.org>.

Turizm va mehmonxona xizmatlari 2020-yilda keskin pasayishni boshdan kechirgan, biroq 2023-yilga kelib tiklanish jarayoni kuzatilmoqda. Professional xizmatlar 36,3 foiz o'sib, zamonaviy biznes muhitida yuqori malakali xizmatlar talabining oshayotganidan dalolat beradi. Savdo va chakana sotish 16,6 foiz o'sgan bo'lsa-da, YIMdagi ulushi 14,2 foizni tashkil etib, xizmatlar sohasining eng katta segmenti bo'lib qolmoqda.

Ikkinchi jadval turli mamlakatlar bo'yicha xizmatlar sektorining qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sektorining YIMdagi ulushi 70 foizdan oshib ketgan: AQSh – 77,6%, Germaniya – 69,3%, Yaponiya – 69,9%. Bu ko'rsatkichlar postindustrial iqtisodiyot bosqichiga erishilganidan dalolat beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xizmatlar sektori tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda ularga, Xitoyda – 54,3%, Hindistonda - 54%, O'zbekistonda esa 49,7% ni tashkil etadi.

Bandlik ko'rsatkichlari ham shunga o'xshash tendensiyani ko'rsatadi. AQShda ishchi kuchining 79,5 foizi xizmatlar sohasida band bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 55,2 foizni tashkil etadi. Bu holat mamlakatimizda xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Xizmatlar eksporti bo'yicha AQSh jahon bo'yicha yetakchilik qilib, 876 milliard AQSh dollari miqdorda eksport qilsa, O'zbekiston atigi 3,8 milliard AQSh dollari eksport qilgan, bu xalqaro xizmatlar savdosini rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Raqamli xizmatlar ulushi rivojlangan mamlakatlarda 36-42 foizni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 18,3 foizni tashkil etadi, bu raqamli transformatsiyani tezlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar qiymati AQShda 53,420 dollar bo'lsa, O'zbekistonda atigi 1,950 dollar, bu aholi turmush darajasini oshirish uchun xizmatlar sohasini rivojlantirishning muhimligini anglatadi. Yillik o'sish sur'ati bo'yicha Hindiston (11,2%) va Xitoy (9,8%) yetakchilik qilmoqda, O'zbekiston esa 7,6 foiz bilan o'rta ko'rsatkichga ega.

Xizmat sifati indeksi bo'yicha Yaponiya (9,1) va AQSh (8,9) yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, O'zbekiston 6,3 ball bilan sifatni yaxshilash bo'yicha katta imkoniyatlarga ega. Investitsiyalar hajmi bo'yicha Xitoy YIMning 4,6 foizini xizmatlar sohasiga yo'naltirsa, O'zbekiston 2,8 foizni tashkil etadi, bu investitsiya oqimlarini oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

3-jadval

Raqamli xizmatlar rivojlanishi va innovatsion texnologiyalar ta'siri (2023)

Raqamli xizmatlar sohalari	Bozor hajmi (mlrd \$)	Yillik o'sish (%)	Foydalanuvchilar (mln)	Investitsiyalar (mlrd \$)	Kelajak prognozi 2027 (mlrd \$)
Elektron tijorat	5,820	18.7	3,450	245	10,340
Raqamli to'lovlar	9,460	23.4	4,890	178	18,520
Fintech xizmatlari	340	31.2	2,340	156	890
Onlayn ta'lim	315	16.8	890	45	580
Telemeditsina	127	28.6	456	38	340
Bulutli xizmatlar	545	19.3	1,890	89	1,120
Streaming platformalar	168	12.4	1,670	42	245
Yetkazib berish xizmatlari	378	21.6	2,120	67	780
Professional onlayn xizmatlar	234	15.9	567	34	420
IoT xizmatlari	289	26.8	1,230	71	720
Sun'iy intellekt xizmatlari	196	38.4	345	98	620
Blockchain xizmatlari	12.4	42.7	89	23	78

Manba: OECD (2024), *Digital Economy Outlook*, Statista (2024). *Digital Market Outlook*; IMF, OECD, UNCTAD, WTO (2023). *Handbook on Measuring Digital Trade* ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Uchinchi jadval raqamli xizmatlar rivojlanishi va innovatsion texnologiyalar ta'sirini aks ettiradi. 2023-yilda raqamli to'lovlar bozori 9,46 trillion dollar hajmiga erishib, eng yirik segment bo'lgan va 4,89 milliard foydalanuvchiga xizmat ko'rsatmoqda. Bu holat an'anaviy naqd pul aylanmasidan elektron to'lovlarga o'tish jarayonining jadallashganidan dalolat beradi. 2027-yilga kelib bu bozor 18,52 trillion dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda, bu ikki baravar o'sishni bildiradi (Sharipov, 2019).

Elektron tijorat 5,82 trillion dollar bozor hajmi bilan ikkinchi o'rinda turib, 18,7 foiz yillik o'sish sur'atini ko'rsatmoqda. COVID-19 pandemiyasi onlayn xaridlar amaliyotini ommalashtirdi va 3,45 milliard inson muntazam ravishda onlayn xarid qilmoqda. 2027-yilga kelib bu bozor 10.34 trillion dollargacha o'sishi kutilmoqda, bu an'anaviy chakana savdoning raqamli transformatsiyasi jarayonining davom etishini ko'rsatadi.

Eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan sohalar blockchain xizmatlari, sun'iy intellekt xizmatlari va fintech hisoblanadi. Blockchain texnologiyalari hali nisbatan kichik bozorga ega bo'lsa-da, uning keskin o'sishi kelajakda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Sun'iy intellekt xizmatlari 196 milliard dollar bozor hajmiga ega bo'lib, mashinali o'qitish, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuter ko'rishi sohasidagi yutuqlar tufayli tez rivojlanmoqda.

Telemeditsina 28,6 foiz o'sish bilan sog'liqni saqlashni raqamlashtirish jarayonining muhim qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. 456 million foydalanuvchi masofaviy tibbiy konsultatsiyalardan foydalanmoqda va 2027-yilga kelib bu bozor 340 milliard dollarga etishi kutilmoqda. Bu holat mamlakatlarda tibbiy xizmatlarni yanada ochiq va qulay qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Onlayn ta'lim 315 milliard dollar bozor hajmiga ega bo'lib, 890 million foydalanuvchi raqamli ta'lim platformalaridan foydalanmoqda. Pandemiya davrida masofaviy ta'limga o'tish bu sohadagi o'sishni tezlashtirdi. Bulutli xizmatlar 545 milliard AQSh dollari bozor hajmi bilan korxonalar va yakka shaxslar uchun zarur infratuzilmaga aylangan. IoT xizmatlari 26,8 foiz o'sish bilan "aqlli uylar", "aqlli shaharlar" va sanoatni avtomatlashtirish sohasida muhim rol o'ynamoqda.

Investitsiyalar bo'yicha elektron tijorat va raqamli to'lovlar eng ko'p mablag' tortayotgan sohalar hisoblanadi. Fintech sohasiga 156 milliard dollar investitsiya kiritilgani yangi startaplar va innovatsion moliyaviy yechimlar yaratilayotganini ko'rsatadi. Sun'iy intellekt xizmatlariga 98 milliard AQSh dollari investitsiya kiritilgani bu texnologiyaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Umumiy investitsiyalar hajmi 1,086 trillion dollarni tashkil etib, raqamli xizmatlar sohasining global iqtisodiyotdagi ustuvor o'rnini ko'rsatadi.

Hududiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi eng ko'p Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida to'plangan. Poytaxtda xizmatlar sektori YaIMning 70 % dan ortig'ini tashkil etadi, bu esa mamlakatning umumiy xizmatlar rivoji asosan yirik markazlarda jamlanayotganini bildiradi. Shu bois, tahlil natijalari asosida sohaning barqaror rivoji uchun hududiy nomutanosiblikni kamaytirish, kichik shaharlar va qishloqlarda servis infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirish kabi chora-tadbirlar dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasining bandlikdagi o'rni ham sezilarli darajada oshmoqda. 2025-yil boshiga kelib, ushbu sohada band aholining 52 % dan ortig'i faoliyat yuritmoqda (Stat, 2025). Bu ko'rsatkich sanoat (24 %) va qishloq xo'jaligidan (22 %) yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, xizmatlar tarmog'ida mehnat unumdorligi hali ham past darajada bo'lib, bu zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv usullari va inson kapitaliga sarmoya yetarli emasligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni anglatadiki, xizmat ko'rsatish sektorining kelajakdagi barqaror rivoji uchun asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida raqamli xizmatlar infratuzilmasini mustahkamlash, xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash, malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion biznes-modellarni joriy etish zarur. Shu orqali mamlakat xizmatlar sektorini nafaqat ichki bozor

ehtiyojlarini qondiruvchi, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh iqtisodiy tarmoqqa aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishida davlat siyosati va islohotlarning ahamiyati alohida o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan "Xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyasi – 2030" konsepsiyasi ishlab chiqilib, bu yo'nalishda bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Strategiyada iqtisodiyotda xizmatlar ulushini 60 foizdan oshirish, yangi xizmat turlarini joriy etish, servis tarmoqlarini raqamlashtirish va eksport salohiyatini oshirish maqsad qilib olingan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan va strategik ahamiyat kasb etayotgan tarmoq sifatida shakllanmoqda. Bu holat iqtisodiy o'sishning endilikda sanoat va qishloq xo'jaligi emas, balki xizmatlar orqali jadallashayotganini anglatadi. Ayniqsa, savdo, transport-logistika, turizm va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlari yangi iqtisodiy "drayver"ga aylanib, bandlik va eksport salohiyatini kengaytirmoqda.

Mazkur sohaning jadal rivojlanishiga raqamli transformatsiya jarayonlari, innovatsion xizmatlar bozorining kengayishi hamda davlat tomonidan yaratilayotgan qulay biznes muhiti katta turtki bermoqda. Jahon Banki va boshqa xalqaro institutlarning tahlillariga ko'ra, O'zbekiston xizmatlar sektori bo'yicha mintaqadagi eng istiqbolli bozor sifatida ko'rilmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki barqaror ijtimoiy rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, xizmatlar sohasini chuqurlashtirilgan diversifikatsiya, raqamlashtirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va xalqaro integratsiyani kengaytirish orqali rivojlantirish O'zbekistonning yaqin istiqboldagi asosiy iqtisodiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Baldwin, R. (2021) *The Globotics Upheaval: Globalization, Robotics, and the Future of Work*. Oxford: Oxford University Press.

Daniels, P. & Bryson, J. (2022) *Service Industries and the Knowledge Economy*. London: Routledge.

Hofmeister, J., Kanbach, D.K., and Hogleve, J. (2024). "Service productivity: a systematic review of a dispersed research area," *Management Review Quarterly*, 74, 1249-1281.

Rustamov, A. (2021) *Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari*. Tashkent: *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №3.

World Bank (2023). *The Promise of Services-Led Growth: Uzbekistan Country Report*

Залевская, Е. В. (2024) *Современные тенденции развития сферы услуг в России и за рубежом*. «Актуальные исследования», № 8 (190).

Калабкина, И. М. (2024) *Мировой рынок услуг: структура и тенденции развития*. CyberLeninka.

Қурбонов, Х. (2023). "Хизмат кўрсатиш соҳасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш масалалари," *Инновацион Ривожланиш ва Тадқиқотлар Журнали*, 6, 54-62.

Лукиянчук, И. Н. & Гажур, А. А. (2018) *Тенденции развития сферы услуг в России*. Вестник ВГУИТ, т. 80, № 3, с. 444–450.

Рубцова, Н.В. (2016). "Международная торговля услугами в условиях глобализации," *Вестник Московского университета. Серия 6: Экономика*, 4, 78-94.

Шарипов, Ш.К. (2019). "Ўзбекистонда хизматлар секторини ривожлантириш стратегияси," *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, 5, 12-19.